

 [Betti PDF ta'rizde ju'klep ali'w \(59 Kb\)](#)  [Versiyasi'](#)  [Betti doc ta'rizde ju'klep ali'w \(59 KB\)](#)

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta`lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» gi PQ-3304-sonli qarori haqida

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta`lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-son Farmoniga muvofiq Xalq ta`limi vazirligining maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli ta`lim-tarbiyasini tashkil etish va ularni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish vazifalari yangi tuzilgan Maktabgacha ta`lim vazirligi zimmasiga yuklatildi.

Xalq ta`limi tizimida davlat boshqaruvini takomillashtirish, vazirlik faoliyatini umumiy o`rta va maktabdan tashqari ta`lim tizimini rivojlantirishga yo`naltirish, ta`limning boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini hamda mas`uliyatini oshirish, o`quv-tarbiya jarayoniga ilg`or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni samarali joriy etish orqali ta`lim sifatini ta`minlash maqsadida **Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to`g`risida»gi PQ-3304-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu qarori bilan:

a) O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo`nalishlari etib;

birinchidan, xalq ta`limi tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, umumiy o`rta va maktabdan tashqari ta`limni har tomonlama rivojlantirish, o`quvchilarning bilimi va ma`naviy-ahloqiy darajasini yanada yuksaltirish;

ikkinchidan, o`rta ta`lim maktablari hamda o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalari o`rtasida o`zaro integratsiyani ta`minlash orkali 11 yillik o`rta ta`limni joriy etish bo`yicha tashkiliy-metodik tadbirlar tizimini amalga oshirish;

uchinchidan, umumiy o`rta ta`lim maktablarining 10-11-sinf o`quvchilariga kasb-hunar o`rgatish hamda umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standartlariga va maktabdan tashqari ta`limga qo`yiladigan davlat talablariga muvofiq xalq ta`limi muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda o`quvchilarga kasb-hunar o`rgatishda metodik rahbarlik qilish;

to`rtinchidan, umumiy o`rta ta`lim muassasalarida chet tillarini o`qitish samaradorligini ta`minlash, o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va mehnat ta`limini yaxshilash bo`yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

beshinchidan, o`quv-tarbiya jarayoniga o`qitishning zamonaviy ilg`or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, o`quvchilarning o`quv, psixologik va jismoniy yuklamasini optimallashtirishni hisobga olgan holda ta`lim-tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

oltinchidan, mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob beradigan, ilg`or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo`llagan holda yangilangan o`quv reja va dasturlarga muvofiq ishlab chiqilgan o`quv va o`quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodi yaratilishini va nashr etilishini tashkil qilish;

ettinchidan, mehribonlik uylari faoliyatini takomillashtirish, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasini va huquqiy ximoya qilinishini ta`minlash, ularning ijtimoiy-mehnat ko`nikmalarini hosil qilishiga va jamiyatga uyg`unlashuviga ko`maklashish;

sakkizinchidan, rivojlanishida turli nuqsonlari bo`lgan hamda davolanishga va sog`lomlashtirishga muhtoj bo`lgan bolalarning (shu jumladan inklyuziv) ijtimoiy kafolatlarini ta`minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta`lim-tarbiya olishlari uchun moslashuv muhitini yaratish, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta`lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) faoliyatini muvofiqlashtirish;

to`qqizinchidan, xalq ta`limi muassasalarida O`zbekiston yoshlar ittifoqi bo`limlari faoliyatini samarali yo`lga qo`yish orqali o`quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma`naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g`oyalari yanada chuqur singdirish, «ommaviy madaniyat» ko`rinishidagi yot g`oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash;

o`ninchidan, umumiy o`rta va maktabdan tashqari ta`lim muassasalari tomonidan davlat ta`lim standartlari va talablari bajarilishining tizimli monitoringini olib borish;

o`n birinchidan, ta`lim muassasalarida byudjet mablag`laridan maqsadli va samarali foydalanishni hamda byudjet intizomiga rioya etishni ta`minlash;

o`n ikkinchidan, ta`lim muassasalarida bino va inshootlardan samarali foydalanish ishlarini muvofiqlashtirish va monitoringini olib borish belgilanganligi;

b) O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi markaziy apparatining boshqaruv xodimlari cheklangan soni 68 nafardan iborat bo`lgan tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog`iston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining tashkiliy tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

viloyatlar xalq ta`limi boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi
4-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahar xalq ta`limi bosh boshqarmasining tuzilmasi
5-ilovaga muvofiq;

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi Respublika ta`lim markazining tuzilmasi 6-ilovaga muvofiq;

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazining tuzilmasi 7-ilovaga muvofiq;

Tuman (shahar) xalq ta`limi bo`limlarining namunaviy tuzilmasi
8-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

v) O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligiga O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi markaziy apparati va hududiy xalq ta`limi boshqaruvi idoralari tuzilmasiga xodimlarning cheklangan umumiy soni doirasida o`zgartirishlar kiritish huquqi berilganligi;

g) O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining A.Avloniy nomidagi Xalq ta`limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markaziy instituti A.Avloniy nomidagi Xalq ta`limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti deb qayta nomlanganligi;

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi A.Avloniy nomidagi Xalq ta`limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tuzilmasi 9-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Mazkur Institut xalq ta`limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo`yicha tayanch ta`lim muassasasi hisoblanishi belgilab qo`yilganligi;

d) O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bir oy muddatda:

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi to`g`risida Nizomni;

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi Respublika ta`lim markazining ustavini;

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazining ustavini;

A.Avloniy nomidagi Xalq ta`limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining ustavini tasdiqlash topshirilganligi;

e) Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bir oy muddatda Qoraqalpog`iston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi to`g`risidagi Nizomni tasdiqlash topshirilganligi;

l) O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to`g`risida» 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3180-son qarori o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblanganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog`iston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

Shahar va tuman xalq ta`limi bo`limlarining namunaviy tuzilmasi
2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qoraqalpog`iston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi bir oy muddatda Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga Qoraqalpog`iston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi to`g`risidagi Nizom loyihasi ishlab chiqsin va tasdiqlash yuzasidan taklif kiritсин.

5. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2017 yil 11 avgustdagi «Xalq ta`limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to`g`risida»gi 566-son qarori o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblansin.

6. Qoraqalpog`iston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda huquqiy-normativ hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o`zgartirish va qo`shimchalar haqida bir oy muddatda Vazirlar Kengashiga takliflar kiritсин.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o`z zimmasida qoldiraman.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko`rip shi'g'i'ldi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)